



V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Hududlar bo'yicha 2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **24 067** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 691** tani tashkil etdi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 440** tani yoki jamiga nisbatan **18,4 %** ni tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **12,2** %, Yangiariq tumani – **10,0** %, Urganch tumani – **9,9** %, Shovot tumani – **9,54** %, Bog'ot tumani – **8,3** %, Hazorasp tumani – **8,1** %, Gurlan tumani – **8,1** % hissalariga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Urganch sh.	28,8
Xiva sh.	18,4
Bog'ot	11,5
Gurlan	12,5
Qo'shko'pir	12,9
Urganch	14,1
Hazorasp	8,9
Tuproqqal'a	14,3
Xonqa	11,9
Xiva	12,8
Shovot	12,0
Yangiariq	15,8
Yangibozor	16,7

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 14,2 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yil 1- oktabr holatiga nisbatan 0,3 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 28,8 birlik, Xiva shahrida 18,4 birlik, Yangibozor tumanida 16,7 birlik, Yangiariq tumanida 15,8 birlik va Tuproqqal'a tumanida 14,3 birlikka yetdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2024- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan	2024- yil yanvar - sentabr	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	34 816	5 691	2 096
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	6213	695	281
Xiva	2691	316	106
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	2464	474	171
Gurlan	2425	451	160
Qo'shko'pir	2860	436	179
Urganch	3896	552	172
Hazorasp	2205	460	176
Tuproqqal'a	847	152	63
Xonqa	2496	348	156
Xiva	2561	395	121
Shovot	2322	537	184
Yangiariq	2190	571	197
Yangibozor	1646	304	130

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 5 691 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 695 ta, Yangiariq tumanida 571 ta, Urganch tumanida 552 ta, Shovot tumanida 537 ta, Bog'ot tumanida 474 ta, Hazorasp tumanida 460 ta, Gurlan tumanida 451 ta, Qo'shko'pir tumanida 436 ta, Xiva tumanida 395 ta, Xonqa tumanida 348 ta, Xiva sh. 316 ta, Yangibozor tumanida 304 ta va Tupraqal'a tumanida 152 tani tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,0 foizi (2023- yil yanvar-sentabrda 72,2 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 698,8 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 21,6 foizi) tashkil qildi;

- 21 361,1 mlrd. soʻmlik qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) boʻlib, oʻsish surʼati 104,6 foizni (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklari yalpi mahsulotining 98,8 foizi) tashkil qildi;

- 4 547,1 mlrd.soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalarha jmining 51,3 foizi) oʻzlashtirildi va 2023- yilning yanvar- sentabrga nisbatan 125,5 foizni tashkil qildi;

- 6 353,6 mlrd.soʻmlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 89,5 foizi) bajarildi va 2023- yilning yanvar- sentabrga nisbatan 71,1 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,5 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,9 foizi), yoʻlovchi aylanmasining esa 102,0 foizga (umumiy yoʻlovchi aylanmasining 96,0 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 96,3 foizi yoki 9 786,6 mlrd. soʻmi (oʻsish 111,0 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 57,5 foizi yoki 13 691,2 mlrd. soʻmi (oʻsish 113,4 foiz) shakllantirildi;

- 178,5 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 63,6 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 161,0 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 47,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik
subyektlarining ulushi**

(2024- yilning yanvar- sentabrida)

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	21 361,1	98,8
Sanoat	4 698,8	21,6
Qurilish	6 353,6	89,5
Chakana savdo	9 786,6	96,3
Yuk tashish, mln tn.	27,4	93,5
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	331,8	94,5
Eksport, mln. AQSh doll.	178,5	63,6
Import, mln. AQSh doll.	161,0	47,8

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da

